BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL INTERESTS

N. Toshtemirova
Independent Researcher
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.21857635

Abstract: This article analyzes the leading socio-psychological factors influencing the formation and development of students' professional interests in higher education. The study examined the relationship between students' intrinsic motivation, macro- and microsocial environments, family values, the educational and psychological climate at the university, and the level of self-reflection. Based on the identified patterns, a system for stabilizing the professional interests of future specialists was developed.

Keywords: professional interest, socio-psychological factor, motivation, school-university integration, professional socialization, student youth.

TALABAILARNING KASBIY QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETTUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning kasbiy qiziqishlari shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida talabalarning ichki motivatsiyasi, makro va mikroijtimoiy muhit, oilaviy qadriyatlar, oliygohdagi ta'limiy-psixologik iqlim hamda shaxsiy refleksiya darajasining o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Aniqlangan qonuniyatlar asosida bo'lajak mutaxassislarda professional qiziqishlarni barqarorlashtirish tizimi ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kasbiy qiziqish, ijtimoiy-psixologik omil, motivatsiya, maktab-oliygoh integratsiyasi, professional sotsializatsiya, talaba yoshlar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ СТУДЕНТОВ.

Аннотация. В данной статье анализируются ведущие социально-психологические факторы, влияющие на формирование и развитие профессиональных интересов студентов, обучающихся в системе высшего образования. В ходе исследования изучалась взаимосвязь между внутренней мотивацией студентов, макро- и микросоциальной средой, семейными ценностями, образовательным и психологическим климатом в университете и уровнем саморефлексии. На основе выявленных закономерностей разработана система стабилизации профессиональных интересов у будущих специалистов.

Ключевые слова. профессиональный интерес, социально-психологический фактор, мотивация, профессиональная социализация, студенческая молодежь.

Kirish; Zamonaviy globallashuv va mehnat bozorining jadal transformatsiyalashuvi sharoitida oliy ta'lim tizimining bosh vazifasi nafaqat quruq nazariy ma'lumotlarni uzatish, balki o'z kasbining sirlarini ongli ravishda o'zlashtirishga intiladigan, yuqori professional qiziqish va motivatsiyaga ega raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishdan iboratdir. Talabalik davri inson hayotining eng faol sotsializatsiya bosqichi bo'lib, aynan shu davrda boshlang'ich kasbiy qiziqishlar real professional yo'nalganlikka aylanadi. Akademik Sh.R. Baratov o'z tadqiqotlarida ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmatning bosh maqsadi talabani shunchaki o'quv jarayoni obyekti emas, balki o'z kasbiy taqdirini ongli belgilovchi faol subyekt sifatida tayyorlash ekanligini alohida ta'kidlaydi [1]. Biroq, ko'pincha talabalarda oliygohga kirgandan so'ng birinchi yoki ikkinchi kurslarda kasbga bo'lgan qiziqishning pasayishi (professional inqiroz) holatlari kuzatiladi. Ushbu inqirozli davrda kasbiy yo'nalganlikning dinamikasi bevosita talaba yoshlar kasbiy sotsializatsiyasining ijtimoiy-psixologik determinatlari bilan bog'liq bo'ladi [4]. Rossiyalik yetakchi psixolog I.V. Dubrovina ta'kidlaganidek, yoshlarning ta'lim tizimidagi psixik va professional kamoloti ko'p jihatdan ularning ijtimoiy muhitdagi o'zaro munosabatlari xarakteri va muassasadagi ruhiy iqlim bilan belgilanadi [6].

Kasbiy qiziqishlarning pasayishi kadrlar qo'nimsizligi va iqtisodiy samarasizlikka olib keladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun talabalarning kasbiy qiziqishlariga ta'sir etuvchi makroijtimoiy va mikroijtimoiy hamda subyektiv-psixologik omillarni tizimli tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari; Tadqiqot O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 1-3 kurs talabalari (N=240, yosh diapazoni 18-22 yosh) o'rtasida o'tkazildi. Talabalarning kasbiy qiziqishlari dinamikasi va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida quyidagi psixodiagnostik usullardan foydalanildi:

Y.A. Klimovning "Differensial-diagnostik so'rovnomasi"; Talabalarning yetakchi kasbiy qiziqish sohalari va shaxs qadriyatlarining tanlangan mehnat obyekti bilan ijtimoiy-psixologik muvofiqligini aniqlash uchun qo'llanildi [5].

K. Zamfirning "Mehnat motivatsiyasini o'rganish" metodikasi; Talabalardagi kasbiy qiziqish poydevorini tashkil etuvchi ichki va tashqi ijobiy xamda tashqi salbiy motivlar nisbatini tahlil qilish va ularning moslashuvchanlik xususiyatlarini o'rganish maqsadida ishlatildi [8].

Z.T. Nishanovaning "Kasbiy refleksiya va o'zini anglash" so'rovnomasi; Talabalarning o'z professional tanlovlariga bo'lgan subyektiv munosabati, adekvat o'z-o'zini baholashi va professional "Men"-konsepsiyasining rivojlanganlik darajasini tahlil qilish uchun xizmat qildi [2].

Sotsiologik anketashtirish; Mikro va makroijtimoiy omillarning (oilaning ta'siri, kasb nufuzi, internet muhiti) talaba qiziqishiga ta'sirini empirik baholash uchun maxsus mualliflik so'rovnomasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari;

Olingan empirik ma'lumotlar statistik tahlil qilinganda, talabalarning kasbiy qiziqishlari darajasi bir jinsli emasligi va ta'lim yillariga qarab o'zgaruvchan ekanligi aniqlandi. 1-kurs talabalari o'rtasida o'tkazilgan "Mehnat motivatsiyasi" tahlili shuni ko'rsatdiki, sinaluvchilarning 42 foizida tashqi ijobiy motivlar ustuvor, atigi 28 foizida ichki professional motivatsiya (kasbning o'ziga bo'lgan qiziqish, ijodkorlik ehtiyoji) aniqlangan. Qolgan 30 foizida tashqi salbiy motivlar ustunlik qilgan. D.E. Super tomonidan ilgari surilgan professional rivojlanish nazariyasiga muvofiq, talabalik yillaridagi bu kabi dinamika kasbiy qiziqishlarning empirik o'sish va o'zlikni qidirish (Exploration) bosqichiga to'g'ri keladi [10].

Sotsiologik anketa natijalariga ko'ra, talabalarning kasbiy qiziqishlariga ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi ijtimoiy-psixologik omillar reytingi quyidagicha taqsimlandi:

a) Oila va yaqin atrof-muhitning qarashlari; 38% talabalarning kasbiy qiziqishlari bevosita ota-onaning kasbiy sulolasi yoki ularning moddiy va ijtimoiy kutishlariga mos ravishda shakllangan.

b) Kasbning ijtimoiy nufuzi va raqamli media ; 27% holatda talabalar ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy trendlar ta'sirida o'z qiziqishlarini o'zgartirganlar.

c) Olygohdagi o'quv-psixologik iqlim va professor-o'qituvchilar shaxsi**;** 25% talabalarda aynan malakali pedagoglarning dars berish mahorati va amaliy mashg'ulotlarning qiziqarli tashkil etilishi natijasida kasbga nisbatan barqaror qiziqish (ichki motivatsiya) ikkinchi kurs oxiriga kelib qayta uyg'ongan.

Klimov metodikasi bo'yicha olingan natijalar talabalarning real kasbiy yo'nalganligi oliygohda o'qiyotgan amaldagi fakultet profiliga mos kelganda, talabalarning kasbiy reflektiv ko'nikmalari sezilarli darajada yuqori bo'lishini tasdiqladi [5].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning kasbiy qiziqishlari statik tushuncha bo'lmay, doimiy ijtimoiy-psixologik ta'sirlar ostida modifikatsiyalanadi. K.W. Merrell o'zining zamonaviy ta'lim psixologiyasiga bag'ishlangan asarlarida ta'kidlaganidek, yoshlik davridagi professional identifikatsiya tashqi sotsial muhit va ichki "Men"-konsepsiyasi o'zaro muvozanatga kelgandagina barqarorlashadi [9]. Agar talabaning subyektiv qiziqishlari bilan u tahsil olayotgan muhit o'rtasida kognitiv dissonans yuzaga kelsa, bu holat talabada professional inqirozni kuchaytiradi. E.F. Zeer o'z tadqiqotlarida oliygoh talabalarida qiziqishlarning pasayishi va krizis holatlari aynan o'quv motivatsiyasining noto'g'ri boshqarilishi natijasida kelib chiqishini isbotlagan [7].

Bizning tadqiqotimizda o'qituvchi-talaba munosabatlarida dialogik uslub ustuvor bo'lgan guruhlarda talabalarning kasbga qiziqish darajasi yuqori bo'lib chiqdi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot makonining (makroijtimoiy omil) yoshlar ruhiyatiga ta'siri kasbiy qiziqishlarning tez-tez o'zgaruvchan bo'lib qolishiga olib kelmoqda. Bu vaziyatda talabalarda refleksiya va ichki barqaror qadriyatlar tizimini rivojlantirish zaruriyati tug'iladi. O.R. Avezov va Z.J. Axmedova o'z ilmiy ishlarida ko'rsatib o'tganidek, har qanday tashqi ijtimoiy bosimlarda va mehnat bozoridagi manipulyatsiyalarda shaxsning o'z maqsadlariga sodiq qolishi uning stressga bardoshliligi hamda adaptiv koping-strategiyalari bilan ta'minlanadi [3].

XULOSA

Olib borilgan tizimli tadqiqotlar tahlillar talaba-yoshlarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish murakkab ijtimoiy-psixologik arxitekturaga ega ekanligini isbotladi. Kasbiy qiziqishlarni barqarorlashtirish va bo'lajak mutaxassislar raqobatbardoshligini oshirish maqsadida quyidagi qat'iy tavsiyalar ilgari suriladi;

1. Oliygohlarda birinchi kursdan boshlab har bir talabaning individual kasbiy trayektoriyasini monitoring qiluvchi psixologik xizmat va tashxis markazlari ishini kuchaytirish.

2. O'quv jarayoniga talabalarning ichki motivatsiyasi, refleksiyasi va professional „Men"-konsepsiyasini faollashtiruvchi muammoli ta'lim hamda innovatsion loyihalarni joriy etish .

3. Talaba yoshlarda zamonaviy mehnat bozoridagi bosimlarga qarshi psixologik immunitet va stressga bardoshlilik ko'nikmalarini shakllantiruvchi maqsadli amaliy dasturlarni tizimli yo'lga qo'yish .

Adabiyotlar

1 Baratov Sh.R. Ta'lim tizimida psixologik xizmat: Darslik. – T.: Universitet, 2007. – 248 b.

2. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya: Darslik. – T.: Turan-edu, 2024. – 412 b.

3. Avezov O.R., Axmedova Z.J. Ekstremal vaziyatlar psixologiyasi: Darslik. – Buxoro: Kamolot, 2022. – 332 b.

4. Olimov L.Y., Mahmudova Z.M. Talaba yoshlar kasbiy sotsializatsiyasining ijtimoiy-psixologik determinatlari // Psixologiya ilmiy jurnali. – 2021. – № 2. – 45-52-betlar.

5. Климов Е. А. Психология профессионального самоопределения: Учебное пособие. – М.: Академия, 2004. – 304 с.

6. Дубровина И. В. Психологическая служба в современном образовании: Рабочая книга. – М.: НЗХ, 2009. – 288 с.

7. Зеер Э. Ф. Психология профессий: Учебное пособие для вузов. – М.: Академический проект, 2008. – 336 с.

8. Реан А. А., Кудашев А. Р., Баранов А. А. Психология адаптации личности. Анализ. Теория. Практика. – СПб.: Прайм-Еврознак, 2008. – 479 с.

9. Merrell K. W., Ervin R. A., Gimpel Peacock G. School Psychology for the 21st Century: Foundations and Practices. – New York: The Guilford Press, 2012. – 302 p.

10 Super D. E. The Psychology of Careers. – New York: Harper & Row, 1957 / Re-published 1990. – 362 p.